

## TARIXIY MANBALARDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHINI ZAMONAVIY METODLARDA O‘RGATISH

Marhabo Farhod-qizi Axmedova  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** *Tarixiy manbalarda uchraydigan onomastik birliklar (antroponim, toponim, etnonim, gidronim va boshqalar)ning lingvistik, tarixiy va madaniy ahamiyati hamda ularni zamonaviy pedagogik metodlar asosida o‘qitishga doir masalalar ushbu tezisda yoritilgan bo‘ib, tarixiy matnlardagi nom birliklarining semantik, etimologik va funksional xususiyatlari tahlil qilinib, ularni kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, klaster, konseptual xarita, raqamli texnologiyalar va matn tahlili asosida o‘rgatishning samarali yo‘llari asoslab beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *onomastika, onomastik birliklar, antroponim, toponim, etnonim, gidronim, lingvokulturologiya, interfaol metodlar, matn tahlili, madaniy manba*

### Kirish

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tarixiy manbalarni zamonaviy metodlar asosida o‘rganish va o‘qitish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, tarixiy matnlarda uchraydigan onomastik birliklar shaxs nomlari, joy nomlari, qabila va elat nomlari, suv havzalari nomlari kabi nominativ birliklar - nafaqat lingvistik hodisa, balki muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va etnografik xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim tarixiy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, onomastik birliklarni o‘rganish tarixiy tafakkurni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash va lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbalarda, xususan, Ogahiyning tarixiy asarlari, “Shajarai turk”, “Boburnoma”, “Temur tuzuklari” singari ko‘plab asarlarda uchraydigan onomastik birliklar o‘sha davr ijtimoiy tuzilishi, hududiy chegaralari, etnik tarkibi va madaniy qadriyatlarini haqida muhim ma’lumot beradi. Biroq, amaliyotda mazkur nom birliklari ko‘pincha faqat tarixiy fakt sifatida tilga olinib, ularning semantik, etimologik va funksional jihatlari yetarli darajada tahlil qilinmaydi. Natijada talabalarda tarixiy manbani kompleks o‘rganish ko‘nikmasi to‘liq shakllanmaydi.

Bugungi ta’lim paradigmasi esa bilimni tayyor shaklda berishdan ko‘ra, o‘quvchini mustaqil izlanishga yo‘naltirish, tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy manbalardagi onomastik birliklarni o‘rgatishda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, matn bilan ishlash texnologiyalari, klaster va konseptual xaritalar, raqamli platformalar hamda lingvistik tahlil usullaridan foydalanish samarali natija beradi. Bu metodlar yordamida talaba nafaqat nomning ma’nosini, balki uning tarixiy kontekstini, madaniy asosini va ijtimoiy funksiyasini ham anglay oladi va onomastik birliklarni zamonaviy metodlar asosida o‘qitish tarix, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va pedagogika fanlari integratsiyasini ta’minlaydi. Fanlararo yondashuv esa ilmiy tafakkurni kengaytirish, manbalar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, tarixiy manbalarda onomastik birliklarning qo‘llanilishini zamonaviy metodlar asosida o‘rgatish nafaqat lingvistik tahlilni chuqurlashtirish, balki ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish, talabalarda tarixiy va madaniy merosga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

*Tarixiy manbalarda onomastik birliklarning qo‘llanilishi.* Onomastika nomlarni, jumladan, shaxs nomlari (antroponimlar) va joy nomlarini (toponimlar) o‘rganish orqali tarixiy sharoitlar,

ijtimoiy tuzilmalar va madaniy rivojlanishlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy manbalardagi onomastik birliklarning ahamiyatini turli tarixiy davrlar va geografik hududlardagi til evolyutsiyasi, oʻzlik shakllanishi, ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar va madaniy meroslarni ochib berishda ularning qiymatini taʼkidlovchi turli tadqiqot ishlari orqali aniqlash mumkin.

Ismlarning tarixiy ahamiyati koʻplab tadqiqotlar orqali isbotlanib, ular onomastik birliklarning til evolyutsiyasi va madaniy oʻzgarishlar haqidagi tushunchamizga qanday taʼsir koʻrsatishini koʻrsatadi. Masalan, gʻarb olimi Skottning taʼkidlashicha “Shotlandiya joy nomlari korpusi qadimgi ingliz tili tarixini kuzatish uchun qimmatli manba boʻlib xizmat qiladi, qadimgi va oʻrta ingliz hamda Shotlandiya xalq tillari oʻrtasidagi lingvistik tadqiqotlarda anʼanaviy ravishda eʼtirof etilmagan aloqalarni ochib beradi”<sup>1</sup>. Bu esa joy nomlarining nafaqat geografik belgi vazifasini, balki hududning ijtimoiy-tarixiy manzarasini aks ettiruvchi lingvistik yodgorlik vazifasini ham bajarishini koʻrsatadi.

Shuningdek, Beykerning qadimgi ingliz ismlarini oʻrganishi bu nomlarning dastlabki Anglo-sakson jamiyatining maʼmuriy geografiyasini tushunish uchun qanchalik muhim boʻlganini koʻrsatadi. Lingvistik maʼlumotlarni tarixiy kontekst bilan uygʻunlashtirish orqali Beyker ismlarning oʻsha davrdagi ijtimoiy-siyosiy tashkilot qoliplari bilan qanday bogʻliqligi haqida tushuncha beradi<sup>2</sup>. Bunday tahlillar tarixiy ahamiyatni notoʻgʻri talqin qilmaslik uchun onomastik tadqiqotlarga keng qamrovli maʼlumotlar toʻplamini kiritish zarurligini taʼkidlaydi.

Onomastik birliklar ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarni oʻrganishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Beresz tomonidan oʻrganilgan Transilvaniyadagi joy nomlari etimologiyasi boʻyicha bahsmunozaralar millatchilik kayfiyati davrida nomlarning milliy oʻziga xoslik va hududiy daʼvolarni shakllantirish uchun strategik jihatdan qanday qoʻllanilganini koʻrsatadi<sup>3</sup>. Bu nomlarning madaniy ramz sifatidagi kuchini va ularning milliy oʻzlikni anglash shakllanishidagi tarixiy ahamiyatini taʼkidlaydi.

Ismlar mamzunidagi maʼlumotlar boyligidan toʻliq foydalanish uchun metodologik asoslar qatʼiy boʻlishi kerak. Darlu va boshqa tadqiqotchi olimlar taklif qilganidek, “genetik, biodemografik va ijtimoiy-madaniy tahlillarning onomastik tadqiqotlar bilan uygʻunlashuvi aholi tuzilmalari va dinamikasini tushunish qobiliyatimizni oshiradi”<sup>4</sup>. Ushbu fanlararo yondashuv tadqiqotchilarga murakkab tarixiy oʻziga xosliklar va nomlar anglatadigan nasliy aloqalarni hal qilish imkonini beradi, bu esa onomastika tadqiqotini yanada keng qamrovli sohaga aylantiradi, sohadagi metodologiyalar, ayniqsa raqamli innovatsiyalar orqali rivojlanishda davom etar ekan, onomastikaning tarix faniga hissa qoʻshish imkoniyati yanada kengayadi. Tarixiy manbalarda uchraydigan onomastik birliklar (antroponim, toponim, etnonim, gidronim va boshqalar)ni zamonaviy metodikalar asosida oʻrgatish - bu faqat nomlarni yod olish emas, balki ularning semantik, etimologik, tarixiy-kulturologik va funksional xususiyatlarini tahlil qilish orqali talabalarda kompleks ilmiy tafakkurni shakllantirish demakdir. Quyida zamonaviy metodikalar asosida onomastik birliklarning qoʻllanilishini ochib berish yoʻllari tizimli ravishda bayon qilinadi.

Kompetensiyaviy yondashuvda asosiy eʼtibor bilimni reproduktiv oʻzlashtirishga emas, balki amaliy qoʻllay olish qobiliyatiga qaratiladi. Onomastik birliklarni oʻrganishda quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:

<sup>1</sup> Scott, Maggie, et al. "Uses of Scottish place-names as evidence in historical dictionaries". *Current Issues in Linguistic Theory*, 2004, p. 213-224. <https://doi.org/10.1075/cilt.252.16sco>

<sup>2</sup> Baker, J. N. L., et al. "Old English *sæte* and the historical significance of 'folk' names". *Early Medieval Europe*, vol. 25, no. 4, 2017, p. 417-442. <https://doi.org/10.1111/emed.12226>

<sup>3</sup> Berecz, Ágoston, et al. "A Contest for Priority: Nineteenth-Century Place-Name Etymologies of Transylvania at Large". *Nationalities Papers*, vol. 50, no. 2, 2020, p. 316-333. <https://doi.org/10.1017/nps.2020.92>

<sup>4</sup> Darlu, Pierre, et al. "The Family Name as Socio-Cultural Feature and Genetic Metaphor: From Concepts to Methods". *Human Biology*, vol. 84, no. 2, 2012, p. 169-214. <https://doi.org/10.1353/hub.2012.a479284>

*Lingvistik kompetensiya - nomlarning tuzilishi, semantikasi va grammatik xususiyatlarini tahlil qilish.*

*Tarixiy kompetensiya - nom orqali davr, hudud va ijtimoiy jarayonlarni aniqlash.*

*Lingvokulturologik kompetensiya - nom va milliy madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish.*

*Tadqiqotchilik kompetensiyasi - tarixiy manbani mustaqil tahlil qilish.*

Masalan, “Boburnoma” asarida uchraydigan toponimlarni tahlil qilish orqali talabalar geografik makon, siyosiy hudud va madaniy muhitni aniqlash ko'nikmasini hosil qiladi.

*Klaster metodi* - talabalar bir tarixiy matndan olingan onomastik birliklarni turlarga ajratadi (antroponim, toponim, etnonim) va ular o'rtasidagi bog'liqlikni grafik shaklda ifodalaydi. Ushbu metodikani qo'llash natijasida tizimli fikrlash rivojlanadi, nomlarning funksional aloqasi ochiladi.

*Muammoli ta'lim* - talabalarga savol qo'yiladi “Muayyan toponim nega aynan shu shaklda shakllangan?”. Bu orqali etimologik tahlil, tarixiy sharoitni aniqlash, xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqlik ochib beriladi.

*Matn tahlili texnologiyasi* - tarixiy matn bilan ishlashning bosqichlari onomastik birliklarni ajratish, ularni tasniflash, semantik va etimologik tahlil, tarixiy kontekst bilan bog'lash, zamonaviy geografik yoki ijtimoiy holat bilan qiyoslash. Masalan, “Shajarai turk” asaridagi etnonimlar orqali turkiy qabilalar tarixini o'rganish mumkin. Ushbu metodika manbani chuqur o'rganish ko'nikmasini shakllantiradi, fakt va nom o'rtasidagi farqni anglashni o'rgatadi.

Onomastik birliklarni zamonaviy metodikalar asosida o'rgatish - bu faqat nomlarni tahlil qilish emas, balki tarixiy matnni ko'p qirrali ilmiy obyekt sifatida anglash jarayonidir. Interfaol, kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar orqali talabalarda tizimli tafakkur, manba bilan ishlash malakasi va madaniy ong shakllanadi.

*Tahliliy muhokama.* Tarixiy manbalarda uchraydigan onomastik birliklar tilshunoslik, tarixshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida joylashgan murakkab ilmiy hodisa hisoblanadi. Ular faqat nominativ vazifani bajaruvchi birliklar emas, balki muayyan davrning siyosiy tuzumi, ijtimoiy tarkibi, hududiy chegaralari va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi semantik kod sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, tarixiy matnlarda onomastik birliklarning qo'llanilishini zamonaviy metodlar asosida tahlil qilish masalasi nazariy va amaliy jihatdan muhimdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim jarayonida onomastik birliklar ko'pincha tarixiy fakt yoki oddiy nom sifatida talqin qilinadi. Masalan, Boburnoma asarida uchraydigan toponimlar yoki antroponimlar asosan tarixiy voqealar kontekstida eslatiladi, biroq ularning etimologik asoslari, semantik yuklamasi va lingvokulturologik mohiyati yetarlicha ochib berilmaydi. Natijada, talabalarda nomning chuqur ma'nosi emas, balki yuzaki tasavvur shakllanadi.

Metodik yondashuvlar esa onomastik birliklarni ko'p qatlamli tahlil obyektiga aylantirish imkonini beradi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlarda talabalar tarixiy matndan onomastik birliklarni ajratib, ularni tasniflash, semantik tahlil qilish va tarixiy kontekst bilan bog'lash orqali mustaqil ilmiy xulosa chiqarishga o'rganadi. Masalan, “Temur tuzuklari” asaridagi shaxs nomlari va joy nomlari siyosiy-hududiy tuzilmani aks ettiruvchi indikator sifatida tahlil qilinishi mumkin. Bu jarayonda nomning funksional vazifasi, ya'ni hokimiyat, harbiy tuzilma yoki ijtimoiy ierarxiyani ifodalash xususiyati ochiladi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash esa onomastik birliklarni vizual va interaktiv shaklda o'rganish imkonini yaratadi. Masalan, tarixiy toponimlarni zamonaviy geografik xaritalar bilan solishtirish orqali hududiy o'zgarishlarni aniqlash mumkin. Bunday metod talabalarda fazoviy tafakkur va analitik yondashuvni rivojlantiradi. Shu bilan birga, elektron matn korpuslari va ma'lumot bazalari yordamida nomlarning takrorlanish chastotasi va funksional qo'llanilish doirasini aniqlash mumkin bo'ladi.

## Xulosa

Tahliliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar onomastik birliklarni tizimli tasniflay oladi, nomning tarixiy va madaniy kontekstini anglaydi, etimologik va semantik tahlilni amalga oshira oladi, tarixiy manbaga tanqidiy yondashuvni shakllantiradi. Tarixiy manbalarda onomastik birliklarning qo'llanilishini zamonaviy metodlar asosida o'rganish ularning faqat lingvistik emas, balki kompleks ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligini ochib beradi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish, talabalarda mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish hamda milliy tarixiy merosga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mashhura B. Onomastik Birliklarning Lingvistik Xususiyatlari //International Conference on Computing, Artificial Intelligence and Information Systems. – 2026. – T. 1. – №. 1. – C. 9-18.
2. Uses of Scottish place-names as evidence in historical dictionaries. *Current Issues in Linguistic Theory*, 2004, p. 213-224. <https://doi.org/10.1075/cilt.252.16sco>
3. Baker, J. N. L., et al. "Old English *sæte* and the historical significance of 'folk' names". *Early Medieval Europe*, vol. 25, no. 4, 2017, p. 417-442. <https://doi.org/10.1111/emed.12226>
4. Berecz, Ágoston, et al. "A Contest for Priority: Nineteenth-Century Place-Name Etymologies of Transylvania at Large". *Nationalities Papers*, vol. 50, no. 2, 2020, p. 316-333. <https://doi.org/10.1017/nps.2020.92>
5. Darlu, Pierre, et al. "The Family Name as Socio-Cultural Feature and Genetic Metaphor: From Concepts to Methods". *Human Biology*, vol. 84, no. 2, 2012, p. 169-214. <https://doi.org/10.1353/hub.2012.a479284>
6. Majidova A. Ona Tili Darsliklari Ta'limi Mazmunini Lingvistik Ekspertiza Qilish Metodikasi //Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal. – C. 675928.